

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
BANK-MOLIYA AKADEMIYASI**



“TASDIQLAYMAN”

**O‘zbekiston Respublikasi
Bank-moliya akademiyasi rektori
E.A.Xoshimov**

« 28 » 2024-yil

**70410402 – “KORPORATIV MOLIYA VA QIMMATLI QOG‘OZLAR
BOZORI (SOHALAR BO‘YICHA)” MAGISTRATURA MUTAXASSISLIGI
BO‘YICHA MUTAXASSISLIK FANLARIDAN KIRISH SINOVLARI
 (“KORPORATIV MOLIYA” VA “MOLIYA BOZORI” FANLARI)**

DASTURI

Toshkent – 2024

Fan bo'yicha magistraturaga kirish sinovlari dasturi Bank-moliya akademiyasi Kengashining 2024-yil « 28 » 06 dagi 10 - sonli majlis bayonnomasi bilan ma'qullangan.

“TAVSIYA ETILGAN»

**“Investitsiya va kapital bozori” kafedrasida
muhojama qilingan va tavsiya etilgan**

**Kafedra mudiri: Elmirzayev S.E.
(kafedra majlisining “ 6 ” - sonli bayonnomasi
“ 26 ” 06 2024-yil)**

Tuzuvchi:

Elmirzaev S.E. O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Investitsiya va kapital bozori” kafedrasida mudiri, i.f.d., prof.
Mamatov B.Sh. O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi
“Investitsiya va kapital bozori” kafedrasida dotsenti, i.f.d.

Taqrizchi:

N.Sh. Shavkatov Toshkent moliya instituti “Korporativ moliya va qimmatli
qog‘ozlar” kafedrasida mudiri, DSc

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliya tizimining samarali ishlashi uning bo‘g‘in faoliyat samaradorligi zamonaviy bozor biznesi mutaxassislariga ko‘pdan bog‘liq bo‘lgani uchun fanning o‘rni oliy malakali kadrlarni tayyorlashda beqiyosdir.

Korporativ moliyani samarali tashkil etish strategiyasini to‘g‘ri belgilash mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida va xalq turmush faravonligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Korporativ moliyaning iqtisodiy mohiyati va tashkiliy xususiyatlari, korporativ tuzilmalarda moliyaviy menejerning roli, korporativ tuzilmalar faoliyatida moliya bozorining o‘rni, pul mablag‘larining vaqt bo‘yicha qiymatini aniqlash masalalari, o‘z mablag‘lari va qarz mablag‘lari hisobiga faoliyatni moliyaviy ta‘minlash masalalari, pul bozori xususiyatlari va moliya bozori shakllanishidagi ahamiyati, aksiyalar bozorining o‘ziga xos xususiyatlari va amal qilish mexanizmi, obligatsiyalar bozorining o‘ziga xos xususiyatlari va savdo mexanizmi, xorijiy valyutalar bozorining moliya bozoridagi tashkiliy jihatlari, kriptovayutalar bozorining ishlash mexanizmi, qimmatbaho metallar va toshlar bozori xususiyatlari, fond birjalari va fond bozori ishtirokchilari faoliyat mexanizmi, markaziy bank va uning moliya bozoridagi faoliyati, moliya bozorida tijorat banklari va nobank kredit institutlarining ishtiroki, investitsiya va pay fondlarining moliyaviy operatsiyalardagi ahamiyati, moliya bozorida sug‘urta tashkilotlari va nodavlat pensiya fondlarining faoliyat mexanizmi, moliya bozorini tartibga solishning iqtisodiy va huquqiy jihatlari bilan yaqindan bilish mamlakatimizda kapital bozori va birja ishi bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta‘lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli, 2019-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, PF-60-sonli, 2021-yil 13-apreldagi “Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6207-sonli, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5847-sonli Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-yanvardagi “Kapital bozorini qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-90-sonli Qarori asosiy qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib 70410402 – “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar bozori (sohalar bo‘yicha)” magistratura mutaxassisligiga tinglovchilikka o‘qishga qabul qilinayotgan nomzodlardan quyidagi bazaviy mavzular bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari talab qilinadi.

ASOSIY QISM

“KORPORATIV MOLIYA” MUTAXASSISLIK FANI

Korporativ moliyaning iqtisodiy mazmuni va tashkil etilishi

Jamiyat rivojlanishida «Korporativ moliya» fanining ahamiyati. «Korporativ moliya» fanining vazifalari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashning hozirgi bosqichida fan rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari. «Korporativ moliya» fanining boshqa iqtisodiy o‘quv fanlari bilan o‘zaro bog‘liqliligi. Korporativ moliyaning mohiyati va tamoyillari, iqtisodiyotni modernizatsiyalashda ularning roli. O‘z-o‘zini tartiblashtirish tamoyilining, o‘z-o‘zini qoplash va o‘z-o‘zini moliyalashtirish tamoyilining, xususiy va qarzga olgan aylanma vositalarni shakllantirish manbalarini ajratish tamoyilining, moliyaviy zahira mavjud tamoyilining o‘ziga xos xususiyatlari. Turli mulkchilik shaklidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyasini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarni mulkchilik shakliga qarab tasniflash. Xorijiy korporativ tuzilmalarning moliyasi. Korporatsiyalarning moliyaviy siyosati.

Korporativ tuzilmalarda moliyaviy mboshqaruv

Korporativ tuzilmalarda boshqaruv tuzilmasi. Korporativ boshqaruv modellari va ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Korporativ boshqaruvda manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish masalalari. Korporativ boshqaruvda moliyaviy boshqaruv masalalari va unda moliyaviy menejning roli.

Moliyaviy samaradorlikni ta‘minlash moliyaviy menejning bosh vazifasi. Moliyaviy menejer – bu biznes egasining agenti bo‘lib, u mulkdor manfaatlari uchun faoliyat yuritishi lozim. Umumiy strategik maqsadlarga erishish uchun moliyaviy menejning boshqa tashkiliy bo‘linmalar bilan hamkorligi.

Moliyaviy menejerlik faoliyatining foydani maksimallashtirish, aksiya kursini va biznes qiymatini maksimallashtirish, aksiyaga to‘g‘ri keladigan foyda va dividend darajasini oshirish, shuningdek xo‘jalik subyekti raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini oshirishdagi o‘rni. Moliyaviy menejning moliyaviy resurslarni shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonini boshqarishdagi ahamiyatli jihatlari. Korporativ moliyaviy boshqaruvning asosiy maqsadi va vazifalari.

Moliyaviy bozorda korporatsiya

Moliya bozorining faoliyat xususiyatlari va yo‘nalishlari. Moliya bozorining korporativ tuzilmalar faoliyatidagi ahamiyati va o‘zaro faoliyat uyg‘unligi. Mumtoz moliyaviy investitsiyalashning asosiy modellari. Moliyaviy bozorda korporatsiyaning roli. Moliyaviy bozorda korporativ qimmatli qog‘ozlarning qiymatini belgilovchi omillar. Moliyaviy bozor davlat tomonidan tartiblashtiruvchi obyekt sifatida.

Pul mablag‘larining vaqt bo‘yicha qiymati konsepsiyasi

Pul mablag‘larining vaqt bo‘yicha qiymati konsepsiyasi korporativ moliyaning fundamental asoslaridan biri. Kelgusidagi pul oqimlarining joriy vaqtdagi qiymati.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy operatsiyalar o'tkazish jarayonida vaqt omili. Bugun olingan pul mablag'i summasi ertaga olinadigan pul mablag'i summasi ekvivalentidan yuqori. Foiz hisoblashda diskontlash va o'sib borish metodlari qo'llanilishi. Tor ma'noda foiz stavkasi qarz mablag'laridan foydalanganlik uchun to'lanadigan qiymatdir. Foiz stavkalarining qo'llanish xususiyatlari.

O'sib borish tushunchasi mazmun-mohiyati va qo'llanish xususiyatlari. Diskontlash tushunchasi mazmun-mohiyati va qo'llanish xususiyatlari. Oddiy foizlar bo'yicha o'sib borish qiymatining hisoblanishi. Oddiy foizlar bo'yicha diskontlash. Matematik diskontlash. Tijorat diskontlash. Foiz stavkasi va operatsiya muddatini aniqlash. r foiz stavkasi va d hisob stavkasining ekvivalentligi. Murakkab foizlar. Murakkab foizlar bo'yicha o'sib boruvchi qiymatni aniqlash. Murakkab foizlar bo'yicha diskontlash. Foiz stavkasini va operatsiya davomiyligini hisoblash. Uzluksiz foizlar.

Korxonalarni moliyalashtirishning o'z manbalari

Korxonalarda o'z mablag'larini shakllantirishning o'z manbalari. Korxonalarda o'z mablag'larini shakllantirishning ichki va tashqi mabalar. Xususi kapitalning tarkibi va tuzilmasi. Ustav kapitali, zahira kapitali, qo'shimcha kapital va taqsimlanmagan foydaning shakllanishi. Xususi kapitalning shakllanish siyosati. Xususi kapitalning alohida olingan unsurlarini baholash. Emission siyosat. Xususi kapitalning samaradorligini o'lchash mezonlari.

Qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirish

Qarz mablag'larining tarkibi va uning jalb qilish qiymatini baholash. Qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlar. Kreditli qarz. Qarz mablag'larining shakllanishi va obligatsiya zayomlarining shakli. Qarz mablag'larining qiymati. Moliyaviy dastakning samarasi (leveridj) va zayom kapitalini boshqarishda uni qo'llash. Qarz oluvchini kreditlash jarayonini tashkil etish. Bank krediti hisobiga moliyalashtirish bo'yicha qo'yiladigan talablar. Obligatsiyalar emissiyasi orqali moliyalashtirishga qo'yiladigan talablar. Qarz mablag'lari hisobiga moliyalashtirishda lizing operatsiyalari. Qarz mablag'larining samaradorligi ko'rsatkichlari.

Korporativ moliyada xorijiy kapitalni jalb etish

Xorijiy kapitalni jalb qilishning qanday shakllari. Xorijiy bank kreditlarini jalb qilish tartibi va unga qo'yiladigan majburiy talablar. Xorijiy banklar tomonidan qo'llaniladigan suzib yuruvchi foiz stavkalari: LIBOR, PIBOR, AQSh bazis stavkasi va boshqalar. Xorijiy banklar tomonidan qo'llaniladigan individual mukofot miqdorlari. Sindikatli kreditlash va ularning qo'llanish xususiyatlari. Xorijiy bank kreditlari afzalliklari va kamchiliklari. Yevroobligatsiyalar va ularni xorijda joylashtirish bo'yicha majburiy talablar. Yevroobligatsiyalarni muomalaga chiqarishning afzalliklari va kamchiliklari. Jahon amaliyotida kredit notalarining qo'llanish xususiyatlari.

Kapital tarkibi va uning bahosi

Kapitalning iqtisodiy xususiyati (tushuncha va tasnifi). Kapitalning jalb qilish usullari va manbalari. Kapital shakllanishiga metodik yondashuv. Kapitalning o'rtacha va chegaraviy qiymati (bahosi). Kompaniya biznes bahosini aniqlashdagi yondashuvlar. Kapital tuzilmasi va investitsion qarorlarni qabul qilish. Kapitalning optimal tuzilmasini hisoblash metodlari. Kapital tuzilmasi va moliyaviy siyosatning o'zaro bog'liqligi. Kapital bahosini aniqlashga soliqlarning ta'siri.

Kredit bahosini aniqlash va unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar. Obligatsiyalar bahosini aniqlash va unga ta'sir etuvchi omillar. Lizing bo'yicha kapital bahosini aniqlash tartibi va unga ta'sir etuvchi omillar. Imtiyozli aksiyalar bahosini aniqlash. Oddiy aksiyalar bahosini aniqlash modellari. Rivojlangan kapital bozori sharoitida *CAPM* modelining qo'llanish xususiyatlari.

Sof joriy qiymat usullari bo'yicha investitsion qarorlarni qabul qilish

Korporativ tuzilmalarda investitsion faoliyatni tashkil etish xususiyatlari. Korporativ moliyada investitsion strategiya va uning tashkiliy xususiyatlari. Korxonalarda investitsion faoliyatni tashkil etish prinsiplari.

Investitsion qarorlarning bo'linishi va moliyalashtirish bo'yicha qarorlar. Investitsiyalar samaradorligini baholashda pul oqimlari prognozi. Loyihalar tahlili haqida keyingi qaydlar, loyihalarning o'zaro ta'siri. Resurslar cheklangan sharoitda kapital qo'yilmalar dasturini tanlash.

Investitsiyalar samaradorligini baholash ko'rsatkichlari: sof joriy qiymat, investitsiyalar rentabelligi, daromadlilikning ichki me'yori, investitsiyalarni qoplash muddati, yillik foiz stavkasi ko'rsatkichlari.

Risk va daromadlilik

Korporativ moliyada moliyaviy risklar yuzaga kelish sabablari va tasniflanishi. Moliyaviy risklarni neytrallashtirishning ichki mexanizmlari.

Investitsion portfelga xos bo'lgan riskni o'lchash. Dispersiya va standart o'zgarish(chetga chiqish). O'zgaruvchanlikni baholash. Diversifikatsiya qanday qilib riskni kamaytiradi. Portfel riskini hosoblab olish. Portfel riskini hisoblash uchun kerak bo'lgan formula. Diversifikatsiyaga oid cheklanishlar. Ba'zi bir qimmatli qog'ozlarning portfel riskiga ko'rsatayotgan ta'siri. Bozor riskining beta o'lchami. Nima uchun qimmatli qog'ozlarning betasi portfel riskini belgilab beradi. Qiymat diversifikatsiyasi va qo'shiluvchanligi.

Opsionlar mohiyati va qo'llanilishi

Opsionlarning iqtisodiy mohiyati va korporativ moliyaviy munosabatlardagi o'rni. Opsionlarning tasniflanishi. Opsion koll qo'llanilishining o'ziga xos xususiyatlari. Opsion put qo'llanilishining o'ziga xos xususiyatlari. Amerika opsiioni va Yevropa opsiionining o'zaro farqli jihatlari. Opsionlar ijro etilish bahosi. Opsionlar bo'yicha mukofotlar. Opsionlar qiymatini baholash modeli. Opsion pozitsiyalari: uzun opsion call; qisqa opsion call; uzun opsion put; qisqa opsion put. Opsionlar bo'yicha bazaviy aktivlar: fond opsiionlari, xorijiy valyutalar bo'yicha opsiionlar, indeksli opsiionlar, fyuchers opsiionlari.

Dividend siyosatining nazariy asoslari

Dividend iqtisodiy mohiyati va korporativ moliyaviy munosabatlardagi o'рни. Dividend siyosati moliyaviy siyosat tarkibiy qismi sifatida. Oddiy aksiyalar bo'yicha dividend to'lanishi tartibi. Imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividend to'lanishi tartibi. Dividend to'lash muddatlari. Dividend to'lanishini ta'qiqlovchi holatlar. Dividend tiplari. Davriylik va doimiylik asosida to'lanadigan muntazam dividendlar. Dividend to'lash bosqichlari. Dividend to'lash shakllari. Pul shaklidagi dividendlar. Avtomatik reinvestitsiyalash. Aksiyalar orqali to'lash. Aksiyalarni maydalash. Xususiy aksiyalarni sotib olish. Dividendlarni soliqqa tortish.

Korxonalarda soliqlarni rejalashtirish

Korxonani moliyaviy munosabatlarda soliqlarni rejalashtirish masalalari. Soliqlarni rejalashtirish prinsiplari. Soliqlarni rejalashtirish elementlari. Korxonalarda soliqlarni rejalashtirish bosqichlari: soliqlarni strategik rejalashtirish, soliqlarni joriy rejalashtirish, soliqlarni operativ rejalashtirish. Korxonalarda soliqlarni rejalashtirishda hisob siyosatining roli. Soliqlarni rejalashtirishda soliq imtiyozlaridan foydalanish masalalari. Soliqlarni rejalashtirish orqali foydani maksimallashtirish imkoniyatlari.

Korporativ birlashishlar va qo'shib olishlar

Kompaniyalarning tashkil etish va birlashishi bo'yicha xorijiy tajriba.

Birlashish va qo'shib olishlarning iqtisodiy mohiyati. Korporativ birlashish va qo'shib olishlarning tasniflanishi. Gorizontaal birlashish va qo'shib olish, vertikal qo'shib olish, konglomerat qo'shib olishning o'ziga xos xususiyatlari. Milliy birlashishlarning iqtisodiyotdagi afzalliklari va kamchiliklari. Korporativ birlashish va qo'shib olishlarga sabab bo'luvchi holatlar. Korporativ birlashishlarning o'zaro raqobatni chetlab o'tish va monopoliya o'rnatish imkoniyatini berishining afzalliklari va kamchiliklari. Qo'shib olinishdan himoyalashtirish imkoniyati. Korporativ birlashishlar va qo'shib olishlarning yuridik shakllari. Kredit hisobiga aksiyalar nazorat paketini sotib olish. Menejerlar tomonidan aksiyalar nazorat paketini sotib olish.

O'zbekiston Respublikasida aksiyadorlik jamiyatlarini qayta tashkil etishning huquqiy asoslari. Bir birini yutish va birlashishlarning moliyaviy jihatlari. Aksiyadorlik jamiyatlarning tugatilishi.

“MOLIYA BOZORI” MUTAXASSISLIK FANI

Moliya bozorining nazariyasoslari

Moliya bozorining iqtisodiy mohiyati. Moliya bozorining iqtisodiyotdagi ahamiyatli jihatlari. Dunyo miqyosida moliya bozorining tashkil etilishi. Moliya bozori ishtirokchilari. Moliya bozori institutlari. Moliya bozorida vositachilar tiplari. Moliya bozorining tarkibiy tuzilishi. Pul bozori. Kapital harakati. Kapital bozori. Qimmatli qog'ozlar bozori.

Moliya bozorining anglo-sakson modeli

Moliya bozorini modellashning mohiyati va ahamiyati. Moliya bozori modellari. Qimmatli qog'ozlarning bozorda joylashtirish xususiyatlari. Qimmatli qog'ozlar bozori orqali moliyalashtirish. Bank modeli. Moliya bozorining anglo-sakson modeli. Autsayderlik modeli. Moliya bozorining islom modeli. Moliya bozori modellarining farqli tomonlari.

Moliya bozorining kontinental (nemis) modeli

Nemis modelining xususiyatlari. Moliya tizimi. Moliya bozorining alohida xususiyatlari. Qimmatli qog'ozlarning bozorda joylashtirish xususiyatlari. Bank kreditlari yordamida moliyalashtirish. Mamlakatimiz moliya bozorining rivojlanish modeli va istiqbollari.

Pul bozori

Pul bozorining iqtisodiy mohiyati. Pul bozorining vujudga kelishi. Pul bozorining qo'llanish xususiyatlari. Pul bozori ishtirokchilari. Davlat, tijorat banklari, korxonalar va boshqalar pul bozori ishtirokchisi sifatida. Pul bozori instrumentlari: davlat qisqa muddatli qimmatli qog'ozlari, qayta sotib olinuvchi shartnomalar, depozit sertifikatlari, tijorat qog'ozlari va boshqalar. Davlat qisqa muddatli qimmatli qog'ozlarining diskont stavkalari. Pul bozori instrumentlari daromadlilik va risklilik darajasi. Respublikamizda pul bozori amal qilish mexanizmi. Pul bozorida qisqa muddatli kreditlarning ajratilish tartibi.

Obligatsiyalar bozori

Obligatsiyalar moliya bozorining muhim instrumenti. Obligatsiyalar emitentlari. Obligatsiyalar tasnifi. Davlat obligatsiyalari. Munitsipal obligatsiyalar. Korporativ obligatsiyalar va ularni muomalaga chiqarish shartlari. Xorijiy obligatsiyalar. Muddatiga ko'ra obligatsiyalar turlari. Joylashtirish shakliga ko'ra obligatsiyalar turlari. Kupon to'lovlariga ko'ra obligatsiyalar turlari. Ta'minlangan va ta'minlanmagan obligatsiyalar. Konvertatsiyalanuvchi obligatsiyalar. Obligatsiyalar qiymati va daromadlilik. O'zbekistonda obligatsiyalar bozoridagi holat.

Aksiyalar bozori

Aksiyalar va ularning qo'llanish xususiyatlari. Oddiy va imtiyozli aksiyalar. Konvertatsiyalanuvchi imtiyozli aksiyalar. Aksiyalar aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining asosi sifatida. Aksiyalar bozori o'ziga xos xususiyatlari. Aksiyalar

emitentlari. Aksiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish. Aksiyalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish. Aksiyalarni joylashtirish. Aksiyalarni qaytarib sotib olish. Aksiya kursi. Aksiyalar nominal qiymati va bozor bahosi. Aksiyalar daromadlilikligi. O'zbekiston aksiyalar bozori holati.

Hosilaviy qimmatli qog'ozlar bozori

Hosilaviy qimmatli qog'ozlarning iqtisodiy mohiyati va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Hosilaviy qimmatli qog'ozlar moliya bozori instrumentlari sifatida. Hosilaviy qimmatli qog'ozlarning funksiyalari. Hosilaviy qimmatli qog'ozlar turlari. Forvard shartnomalari. Fyuchers shartnomalari va turlari. Opsion shartnomalari. Opsionlar turlari. Amerika opsionlari. Yevropa opsionlari. Opsionlar bo'yicha bazaviy aktivlar. Svoplar iqtisodiy mohiyati. Svoplar turlari. Valyuta svopi qo'llanish xususiyatlari.

Ipoteka qimmatli qog'ozlar bozori

Ipoteka. Ipoteka krediti. Ipoteka krediti. Ipoteka qimmatli qog'ozlari. Ipoteka va ipoteka kreditlash amaliyotini moliyaviy ta'minlash. Ipoteka qimmatli qog'ozlari tasnifi va tavsifi. Ipoteka obligatsiyalarini muomalaga chiqarish va joylashtirish. Ipoteka bozori modellari va qo'llanish xususiyatlari. An'anaviy model (bitta bosqichli, yevropa modeli) o'ziga xos xususiyatlari. Ipoteka bozorining ikki bosqichli amerika modeli amal qilish mexanizmi. Ssuda-jamg'arma modeli qo'llanilishi. Respublikamizda va xorijiy mamlakatlarda ipoteka bozori amaldagi holati.

Xorijiy valyuta bozori

Xalqaro valyutalar bozori vujudga kelishiga ob'ektiv zarurat. Xorijiy valyutalar bozori tashkiliy jihatlari. Valyuta ayirboshlash kurslari va ularni aniqlash. Xalqaro valyuta bozorida ayirboshlash kurslarining belgilanishi. FOREX operatsiyalari. FOREX afzalliklari va kamchiliklari. Valyuta bozorida savdoni amalga oshirish tartibi. Valyuta zaxiralari.

Qimmatbaho metallar bozori

Qimmatbaho metallar bozori xususiyatlari. Valyutalar bo'yicha oltin standart bekor qilingacha qimmatbaho metallar bozori rivojlanishi. Qimmatbaho metallar bozori ishtirokchilari: qazib oluvchi sanoat korxonalarini, qayta ishlovchi sanoat korxonalarini, birjalar, investorlar, banklar, professional vositachilar. Oltin bozori amal qilish mexanizmi. Xalqaro oltin bozorlari markazlari. Qimmatbaho metallar savdosida hosilaviy instrumentlar qo'llanilishi. Oltin bo'yicha svoplar turlari: vaqt bo'yicha svop (moliyaviy svop), metallning sifati bo'yicha svop, joylashgan joyiga ko'ra svop. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozlari sharoitida oltin savdosi.

Davlat qimmatli qog'ozlar bozori

Davlat qimmatli qog'ozlar iqtisodiy mohiyati va qo'llanish xususiyatlari. Davlat qimmatli qog'ozlari turlari. Davlat korxonalarining qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriluvchi operatsiyalari. Davlat obligatsiyalari. Suveren yevrobondlar. Davlat qimmatli qog'ozlarining daromaliligi va risklilik darajasini baholash.

Xalqaro qimmatli qog'ozlar bozori

Xalqaro qimmatli qog'ozlar iqtisodiy mohiyati va qo'llanish xususiyatlari. Xalqaro qimmatli qog'ozlar turlari. Xalqaro aksiyalar va obligatsiyalar. Yevroaksiyalar. Yevroobligatsiyalar. Qisqa muddatli yevroqog'ozlar. Yevrodepozit sertifikatlar. Depozitar tilxatlar. Amerika depozitar tilxatlari. Global depozitar tilxatlar. Xalqaro qimmatli qog'ozlar bozori amal qilish mexanizmi. Xalqaro qimmatli qog'ozlar savdosi tashkilotchilari. Xalqaro qimmatli qog'ozlari chiqarishda emitentga qo'yiladigan talablar. Xalqaro qimmatli qog'ozlar afzalliklari va kamchiliklari. Mamlakatimizdagi emitentlar tomonidan xalqaro qimmatli qog'ozlar muomalaga chiqarish.

Islom qimmatli qog'ozlar bozori

Islom moliyasi mohiyati. Islom qimmatli qog'ozlari. Mushoraka (sharikchilik) asosida moliyalashtirish. Sukuk orqali kapital jalb qilish. Mamlakatimizda islom moliya bozorini rivojlantirish borasida qilinayotgan ishlar. Islom moliya bozori institutlari. Halqaro Islom Moliya Bozori (IIFM).

Moliya bozori tahlili

Moliya bozori tahlilining tashkiliy xususiyatlari. Qimmatli qog'ozlar tahlili. Moliya bozori fundamental tahlil va e'tibor qaratiladigan jihatlar. Fundamental tahlilga ta'sir etuvchi omillar. Emitent joriy moliyaviy holati fundamental tahlili.

Moliya bozori texnik tahlili. Moliya bozori tahlilida trendlar. Yapon shamlari turlari va modellari. Ayiqlar va buqalar jangi. Bozordagi o'zgarishlar dinamikasi. Pandemiya sharoitida moliya bozordagi o'zgarishlar tahlili

Moliya bozori risklari va portfelni boshqarish

Moliya bozori risklari: mohiyati, asosiy turlari va baholash usullari. Bozor risklari. Fond riski. Foiz riski. Valyuta riski. Tizimli risk va uni aniqlash indikatorlari. Portfel nazariyasi: Markovisgacha va undan keyingi baholash usullari. Indeksga bog'liq portfel samaradorlik mezonini. Moliya bozori risklarini pasaytirish va oldini olish imkoniyatlari.

Fond birjalari va fond bozori professional ishtirokchilari

Fond birjasi funksiyalari va tashkiliy tuzilmasi. Fond birjasi faoliyat prinsiplari. Fond birjasi infratuzilmasi va birja savdolari ishtirokchilari. Fond birja savdolari mexanizmi. Birja auksioni turlari.

Investitsiya vositachisi, investitsiya maslahatchisi, investitsiya fondi, investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchi, tranfer-agent, qimmatli qog'ozlarning birjadan tashqari savdosi tashkilotchisi, dilerlar, market-meykerlar va brokerlar. Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi faoliyat mexanizmi.

Hisob-kitob kliring palatasi instituti vazifalari. Kliring elektron tizimi. Fond bozori professional ishtirokchisi sifatida fond birjasidagi faoliyati. Savdolarini tashkil etish va amalga oshirish. Faoliyatining huquqiy asoslari.

Moliya bozorida banklar va nobank kredit institutlari

Moliya bozorida banklarning ishtiroki. Tijorat banklari emitent sifatida. Banklar tomonidan muomalaga chiqariladigan moliyaviy instrumentlar. Banklar moliyaviy vositachilar va savdo tashkilotchilari sifatida. Banklarning faol investor sifatidagi faoliyati. Moliya bozorida nobank kredit institutlari. Pul bozorida nobank kredit institutlari faoliyat mexanizmi. Mikrokredit tashkilotlari va lombardlarning moliya bozoridagi faoliyati xususiyatlari.

Investitsiya va pay fondlari

Investitsiya fondlarining iqtisodiy mohiyati va yuzaga kelishi. Investitsiya fondlarining bozor sharoitidagi ahamiyatli jihatlari. Xorijiy amaliyotda investitsiya fondlari tashkiliy tuzilmasi. Mamlakatimizda kollektiv investitsiyalash amaliyotining tashkiliy-huquqiy asoslari. Investitsiya fondlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi. Investitsiya fondlari investitsiya portfelini diversifikatsiyalash. Mamlakatimizda investitsiya fondlari faoliyatining amaliy jihatlari. Pay fondlari tashkiliy jihatlari va faoliyat tartibi.

Moliya bozorini tartibga solish

Moliya bozorini tartibga solishga obyektiv zarurat. Moliya bozorini tartibga solish usullari. Moliya bozorida o'zini o'zi tartibga solish. Moliya bozorini davlat tomonidan tartibga solish. Moliya bozorini tartibga solishda davlatning funksiyalari. Mamlakatimizda moliya bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organlari. Moliya bozorini tartibga solishda megaregulyator qo'llanilishi. Moliya bozorini tartibga solish bo'yicha AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniya tajribalari.

ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 1992 yil (O'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
2. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, 2014 yil 6 may.
3. O'zbekiston Respublikasining «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonuni. 2015 yil, 3 iyun.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. 2017 yil 7 fevral.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-son Farmoni. 2021 yil 13 iyul.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni. 2015 yil 24 aprel.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5495 sonli Farmoni. 2018 yil 1 avgust.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6096 sonli Farmoni. 2020 yil 27 oktabr.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonlarini yanada jadallashtirish to‘g‘risida”gi PF-6167 sonli Farmoni. 2021 yil 11 fevral.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. 2017 yil 2 sentabr.

11. Sh.Mirziyoev. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr

12. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq / Sh.M. Mirziyoev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.

13. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.

14. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.

15. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: : “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

16. Elmirzayev S. Korporativ moliya. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 364 b.

17. Elmirzayev S. Zamonaviy korporativ boshqaruv. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 416 b.

18. Elmirzayev S. Korporativ soliqlarni rejalashrish – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 176 b.

19. Elmirzayev S. va boshq. Moliya bozori. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. – 324 b.

20. Алешин В.А., Зотова А.И. Финансы. - Ростов н/ Д: Феникс, 2009 г. – 346 стр.

21. Ataniyazov J.X., Alimardonov E.D. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. –T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” – 2014. 432 b.

22. Боди З., Мертон Р.К. Финансы Пер. с англ. : Уч. Пос. – М.: Изд. дом “Вильямс ” 2009. – 320 с.

23. Бочаров В. В., Леонтьев В. Е, Радковская Н. П. Финансы: учебник. - СПб.: Питер, 2009. – 400 с.

24. Vahobov A., Malikov T. “Moliya: umumnazariy masalalar” o‘quv qo‘llanma Toshkent, “IQTISOD-MOLIYA”, 2008 y. 316 b.

25. Давыдова Л.В., Федорова О.А., Коршунова Г.В. Финансы в схемах. 2008 г.
26. Malikov T.S., Vahobov D.R. Moliya chizmalarida. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009 y, 660 b.
27. Malikov T.S. “Moliya: xujalik yurituvchi subektlar moliyasi” O‘kuv kullanna /- T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2009. -288 b.
28. Malikov T., Xaydarov N., “Budjet: tizimi, tuzulmasi, jarayoni” o‘quv qo‘llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA”, 2008 y, 84 b.
29. Нешиной А.С. Финансы, денежное обращение и кредит. Учебник. – М.: “Дашков и К ”, 2010 г. – 592 стр. Romanovskogo M.V., Vrublevskoy O.B., Sabanti B.M. Finansy. – M.: Izd. “Vysshee obrazovanie ”, 2010 g. – 462 str.
30. Романовского М.В., Врублевской О.Б., Сабанти Б.М. Финансы. – М.: Изд. “Высшее образование ”, 2010 г. – 462 стр.
31. Ataniyazov J.X. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik. –T.: «Iqtisod-moliya», 2020. – 612 b.
32. Эскиндаров М., Звонова Е. Международные валютные отношения. Учебник. – М.: КноРус, 2020. – 542 с.
33. Frederic S. Mishkin., Stanley G. Eakins. Financial markets and institutions. Pearson. – 9th ed. 2018. – 808 p.
34. Paul R. Krugman. Maurice Obstfeld, Marc Melitz. International economics: theory & policy/Paul R. Krugman, Maurice Obstfeld, Marc J. Melitz. – 9th ed. 2018. – 782 p.
35. Поляка Г.Б. Финансы. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2009. – 703 с.
36. Лапуста М. Г., Мазурина Т. Ю. Финансы предприятий: учебное пособие. – М.: Издательство «Альфа-Пресс», 2009. – 640 с.
37. Ковалева В.В. «Финансы», - М.: Проспект, 2008. – 640 с.
38. Internet saytlari:
www.mf.uz
www.openinfo.uz
www.cer.uz
www.publicfinance.uz
www.lex.uz